



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b:
B.Bobojonov

«26» mart 2026 y.
№ 89

**“Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko‘chasida joylashgan,
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma’muriy binosini mukammal ta’mirlesh”
ishlari bo‘yicha**

ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH HUJJATLARI

Toshkent – 2026 yil
TANLASH TO‘G‘RISIDA AXBOROT

Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Tanlash predmeti	Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko‘chasida joylashgan, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma‘muriy binosini mukammal ta‘mirlash ishlari
Lotning bo‘linuvchanligi	Lot bo‘linmaydi
Tanlash o‘tkazish davri (oy)	2026-yil mart oyi
Moliyalash manbai	O‘z mablag‘lari
Boshlang‘ich narxi	256 799 330 262,50 (ikki yuz ellik olti milliard yetti yuz to‘qson to‘qqiz million uch yuz o‘ttiz ming ikki yuz oltmish ikki so‘m 50 tiyin, QQSsiz) so‘mni, 287 615 249 894,0 (ikki yuz sakson yetti milliard olti yuz o‘n besh million ikki yuz qirq to‘qqiz ming sakkiz yuz to‘qson to‘rt QQS bilan birga) so‘m.
Tanlash taklifini ta‘minlash kafolat summasi (zakalat puli)	Tanlash boshlang‘ich narxining 1%
To‘lov shartlari	Bo‘nak (Avans) - 10%; joriy moliyalashtirish - bajarilgan ishlar hajmining 95% miqdorida, berilgan bo‘nakni mutanosib ravishda ushlab qolishni hisobga olgan holda; qurilish ishlari yakunlanib, kafolat muddati tugaganidan keyin - 5%. Pudrat tashkilotining mebel, uskunalar, qurilish materiallari va inventarlar sotib olish bo‘yicha asoslantirilgan hisob-kitoblariga ko‘ra, Buyurtmachi shartnoma summasi doirasida bo‘nak shaklida moliyalashtirish masalasini ko‘rib chiqishi mumkin, bunda avans summasi keyinchalik bajarilgan ishlar dalolatnomalaridan (aktlardan) ushlab qolinadi.
To‘lov valyutasi	<u>Mahalliy pudratchilar uchun:</u> O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so‘m. <u>Xorijiy pudratchilar uchun:</u> Tanlash taklifi taqdim etilgan xorijiy valyutada (AQSh dollari)
Ish (xizmat)larni bajarish joyi	<u>Mahalliy pudratchilar uchun:</u> “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma‘muriy binosi quyidagi manzil bo‘yicha joylashgan: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, “Chorsu” MFY, Beruniy ko‘chasi, 2a-uy. <u>Xorijiy pudratchilar uchun:</u> “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma‘muriy binosi quyidagi manzil bo‘yicha joylashgan: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, “Chorsu” MFY, Beruniy ko‘chasi, 2a-uy.
Ishlarni bajarish muddati	Pudrat tashkilotining hisob raqamiga avans mablag‘lari kelib tushgan kundan boshlab 5 oy (yoki 150 kalendar kun).

Tanlash taklifining amal qilish muddati	Takliflarni qabul qilish tugagan paytdan e'tiboran eng kamida 20 (yigirma) ish kuni.
Tanlash ishtirokchilariga maxsus talablar	<p>Tanlashda ishtirok etish uchun Ishtirokchi “Biznesni rivojlantirish banki” ATB rasmiy saytidagi https://brb.uz/ saytidagi e'longa asosan kafolat amal qilish davrida tanlash boshlang'ich narxining 1% miqdorda zakalat puli shaklida taklif ta'minoti kafolatini taqdim qilishi kerak.</p> <p><u>Mahalliy pudratchilar:</u> Mahalliy pudratchilar tomonidan zakalat puli “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning 29896000900001037102 hisob raqamiga (Bank kodi: 01037, STIR: 206916313), “Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko'chasida joylashgan, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma'muriy binosini mukammal ta'mirlash ishlari” bo'yicha tanlashda ishtirok etish uchun 1% zakalat puli” deb o'tkaziladi.</p> <p><u>Xorijiy pudratchilar:</u> Xorijiy pudratchilar tomonidan zakalat puli “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning 29896840800001037102 hisob raqamiga, SWIFT kod: GJSOUZ 22 (Bank kodi: 01037, STIR: 206916313), “Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko'chasida joylashgan, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma'muriy binosini mukammal ta'mirlash ishlari” bo'yicha tanlashda ishtirok etish uchun 1% zakalat puli” deb o'tkaziladi.</p> <p>Ushbu zakalat puli tanlash natijalari e'lon qilingan sanasidan so'ng 3 ish kunida Ishtirokchilarning banklardagi hisob raqamlariga qaytariladi.</p> <p>Ta'sisчилari bir yuridik va jismoniy shaxslar hisoblangan Ishtirokchilar tanlashdan chetlashtiriladi.</p> <p>Offshor hududlarda ro'yxatdan o'tkazilgan Ishtirokchi yoki Ishtirokchi banki tanlashdan chetlashtiriladi.</p>
Takliflarni berish muddati	<p>Tanlash takliflari quyidagi saytda e'lon berilgan sanadan e'tiboran 12 (o'n ikki) ish kuni mobaynida qabul qilinadi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrda “Toshkent shahrining Shayxontohur tumanini ijtomoiy-iqtisodiy rivojlantirishni yanada jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 888-sonli qarori asosan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB rasmiy sayti https://brb.uz/</p>
Ishchi organ Tanlash o'tkazilishi bo'yicha tanlash komissiyasi mas'ul kotibi (aloqa bog'lovchi shaxs)	<p>“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Ma'muriy xo'jalik departamenti. Manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 18A-uy. Departament direktori F.Mustafojev Tel.: (998-78) 150 93 39 (800).</p>

I. TANLASH ISHTIROKCHISI UCHUN YO'RIQNOMA

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Mazkur tanlash bo'yicha xarid hujjatlari (bundan buyon matnda – “xarid hujjatlari”) O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'zRQ-684-sonli Qonuni (bundan buyon

matnda – “Qonun”), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-332-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashlil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi” Nizom, O‘zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdaagi “Toshkent shahrining Shayxontohur tumanini ijtomoiy-iqtisodiy rivojlantirishni yanada jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 888-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdaagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli Farmoni va Bank Boshqaruvining 2025-yil 11- dekabrdaagi 155/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida Nizom talablariga asosan ishlab chiqilgan.

- 1.2 Tanlash predmeti: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko‘chasida joylashgan, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma‘muriy binosini mukammal ta‘mirlash ishlari.
- 1.3 Tanlash o‘tkazish (loyihani realizatsiya qilish) uchun asos: O‘zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdaagi “Toshkent shahrining Shayxontohur tumanini ijtomoiy-iqtisodiy rivojlantirishni yanada jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 888-sonli qarori va Bank Boshqaruvining 2025-yil 23-yanvardaagi 6-sonli qarori.
- 1.4 Tanlashning eng yuqori qiymati: Birinchi va ikkinchi bosqich 256 799 330 262,50 (ikki yuz ellik olti milliard yetti yuz to‘qson to‘qqiz million uch yuz o‘ttiz ming ikki yuz oltmish ikki so‘m 50 tiyin, QQSsiz) so‘mni, 287 615 249 894,0 (ikki yuz sakson yetti milliard olti yuz o‘n besh million ikki yuz qirq to‘qqiz ming sakkiz yuz to‘qson to‘rt QQS bilan birga) so‘m.
Ishtirokchilar tomonidan taklif qilinadigan narxlar tanlashning eng yuqori qiymatidan ko‘p bo‘lmasligi kerak.
- 1.5 Xarid komissiyasi yig‘ilishlari xarid komissiyasi a‘zolari ishtirokida ishchi tartibda o‘tkaziladi. Xarid komissiyasi yig‘ilishlari videokonferensiya (telekonferensiyalar va h.k.) formatida o‘tkazilishi mumkin.

2. Tanlash tashkilotchilari

- 2.1 Buyurtmachi: “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (bundan buyon matnda – “Buyurtmachi”). “Buyurtmachi” manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko‘chasi, 18A-uy, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Bosh ofisi binosi; Tel.: (998-78) 150 93 39 (800).
- 2.2 Xarid komissiyasi ishchi organi – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Ma‘muriy xo‘jalik departamenti, Manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko‘chasi, 18A-uy; tel.: (998-78) 150 93 39 (800). Departament direktori F.Mustafoyev.
- 2.3 Shartnoma egasi: “Biznesni rivojlantirish banki” ATB.
- 2.4 Tanlash o‘tkazish shakli va e‘lon joylashtiriladigan veb-saytiga havola: O‘zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrda “Toshkent shahrining Shayxontohur tumanini ijtomoiy-iqtisodiy rivojlantirishni yanada jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 888-sonli qarori asosan maxsus axborot portalida tegishli axborotlarni joylashtirmasdan hamda xarid tartib-taomillarini elektron shaklda o‘tkazmasdan eng yaxshi takliflar tanlash orqali. “Biznesni rivojlantirish banki” ATB rasmiy sayti <https://brb.uz> hamda xarid komissiyasi tomonidan belgilangan boshqa ommaviy axborot vositalarida e‘lon joylashtiriladi.
- 2.5 Tanlash Buyurtmachi tomonidan yetti nafar a‘zo tarkibida tashkil qilingan tender o‘tkazilishi bo‘yicha komissiyasi (bundan buyon matnda – “Xarid komissiyasi”) tomonidan o‘tkaziladi.

3. Tanlash ishtirokchilari

- 3.1 Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi xarid qilish tartib taomilida davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari yoki norezident bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxslardir.
- 3.2 Ishtirokchi quyidagilarga haqli:
 - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hajmda davlat xaridlari to‘g‘risida axborotdan foydalanish;
 - Buyurtmachiga yoki uning tomonidan jalb qilingan ixtisoslashgan tashkilotga muayyan davlat xaridlarini o‘tkazish tartib-taomillari, talablari va shartlariga doir so‘rovnomalar berish va ular bo‘yicha izohlar olish;
 - Davlat xaridlari sohasida shikoyatlarni ko‘rib chiqish komissiyasiga tanlash natijalaridan norozi bo‘lib shikoyat arizasi berish;
 - qonun hujjatlariga asosan takliflarga o‘zgartishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish.
- 3.3 Ishtirokchi quyidagi majburiyatlarga ega:
 - davlat xaridlari bo‘yicha qonun hujjatlari talablariga

rioya qilish;

- xarid hujjatlari talablariga muvofiq takliflar va hujjatlarni taqdim qilish va taqdim qilingan axborotning to'g'riligi uchun javobgar bo'lish;

- tanlash g'olibi deb e'tirof qilingan holatda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda Buyurtmachi bilan shartnoma tuzish.

Ishtirokchi va uning affillangan shaxsi bir tanlash lotida ishtirok qilishga haqli emas.

3.4 Buyurtmachi bilan manfaatlar to'qnashuviga ega Ishtirokchi davlat xaridlari ishtirokchisi bo'lishi mumkin emas.

3.5 Ishtirokchi davlat xaridlari ijrochisi deb e'tirof qilingan taqdirda:

tanlash yakunlari bo'yicha g'olib deb rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki kun mobaynida davlat xaridlari maxsus axborot portalida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali bevosita yoki bilvosita 25 foiz yoki undan ko'p aksiyalarga (ulushga) haqiqatdan nazorat qilishga ega bo'lgan o'zining yakuniy manfaatdor shaxslari (benefitsiarlari) to'g'risidagi axborotlarni oshkor qilishlari;

o'zlarining veb-saytlarida va maxsus axborot portalida doimiy asosda tanlash savdolari yakunlari bo'yicha imzolangan shartnoma majburiyatlari bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni joylashtirib borishga majbur.

4. Taklif ta'minotini taqdim qilish tartibi

4.1 Tanlashda ishtirok etish uchun Ishtirokchi "Biznesni rivojlantirish banki" ATB rasmiy saytidagi <https://brb.uz/>, "O'zbekiston ovozi" gazetasi, daryo.uz rasmiy saytidagi e'longa asosan kafolat amal qilish davrida tanlash boshlang'ich narxining 1% miqdorda zakalat puli shaklida taklif ta'minoti kafolatini taqdim qilishi kerak. Ushbu zakalat puli tanlash natijalari e'lon qilingan sanasidan so'ng 3 ish kunida Ishtirokchilarning banklardagi hisob raqamlariga qaytariladi qaytariladi.

4.2 Ishtirokchilar zakalat puli O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida to'lanadi. O'zbekiston Respublikasi norezidentlari uchun zakalat puli to'lovi Ishtirokchining shaxsiy hisobvarag'i valyutasiga muvofiq ravishda, zakalat puli kiritilgan sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha chet el valyutasida to'lanishi mumkin.

4.3 Zakalat puli bilan ta'minlanmagan takliflar ko'rib chiqilmaydi.

4.4 Tanlash G'olibining zakalat puli Buyurtmachi bilan tanlash yakunlari bo'yicha tuzilgan shartnoma imzolanganiga qadar bank tomonidan muzlatib qo'yiladi.

4.5 Buyurtmachi quyidagi hodisalardan biri yuz berganidan so'ng zakalat puli to'lovini talab qilmaydi yoki uning qaytarilishini ta'minlaydi:

- Ishtirokchi tanlash g'olibi deb topilmagan holatda;
- tanlashning bekor qilinishi;
- takliflarni yuborish yakuniy muddati tugagunigacha taklifning qaytarib olinishi.

5. Tanlash ishtirokchilariga bo'lgan talablar

- 5.1 Tanlash ishtirokchilariga 1-ilova "Tanlash ishtirokchilari va takliflarni baholash mezonlari"da keltirilgan talablar qo'yiladi. Ushbu talablarga muvofiq bo'lmagan yoki talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim etmagan yoki taqdim etgan ma'lumotlari Buyurtmachi tomonidan qo'shimcha ravishda o'rganib chiqilganda haqiqiyliги va ishonchliligi tasdiqlanmagan holda ushbu ishtirokchi tanlashdan chetlashtiriladi.
- 5.2 Tanlash ishtirokchisi o'z taklifi bilan birga ushbu xarid hujjatlarining 1-ilovasi "Tanlash ishtirokchilari va takliflarni baholash mezonlari"da keltirilgan tanlash uchun hujjatlarni taqdim etadi.
- 5.3 G'olibni tanlashda ushbu bobda va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarga javob bermaydigan tashkilot va firmalar tanlashda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.
- 5.4 Mazkur bobda ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etish uchun majburiydir. Agar ishtirokchi ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etmasa, xarid komissiyasi uni tanlashda ishtirok etishga ruxsat bermaslikka haqli.
- 5.5 Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi:
 - a) "Biznesni rivojlantirish banki" ATB rasmiy sayti, www.brb.uz ga joylashtirilgan xarid hujjatining elektron shaklini yuklab oladi va o'rganib chiqadi;
 - b) mazkur xarid xujjati talablari asosida o'z taklifini taqdim etadi;
- 5.6 Tanlash ishtirokchisi:
 - taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliги va ishonchliligi uchun javobgardir;
 - faqat bitta taklif kiritish huquqiga ega;
 - taqdim etilgan taklifni taqdim etish muddati tugagunga qadar qaytarib olish yoki o'zgartirish huquqiga ega.
 tanlash ishtirokchisi tomonidan ilovada ko'rsatilgan kafolat xati (1-shakl), kontragent egaligi tuzilmasi (2-shakl), korrupsion holatlarga yo'l qo'yilmaslik haqidagi ariza (3-shakl), tanlash shartlariga o'xshash ishlarni bajarish bo'yich ish tajribasi to'g'risida ma'lumot (4-shakl), tanlash ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumot (5-shakl), Ishtirokchining Tanlashda ishtirok etish uchun Xarid komissiyasi raisiga arizasi (6-shakl), xodimlar bilan ta'minlanganlik to'g'risida ma'lumotnoma (7-shakl)lar tanlash hujjatlarida ko'rsatilgan shaklda taqdim etadi.

Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan malaka hujjatlari tanlash e'lon qilingan sanadan keyin rasmiylashtirilgan yoki amal qilish muddati (soliq

idoralari yoki boshqa vakolatli tashkilotlardan berilgan ma'lumotlar) o'tmagan bo'lishi lozim.

6. Takliflarni rasmiylashtirish, qabul qilish, baholash tartibi va ko'rib chiqish muddatlari

- 6.1 Takliflar tanlash ishtirokchisining vakolatli vakili tomonidan tasdiqlangan va muhrlangan ikkita, tashqi va ichki, konvertda topshirilishi kerak. Yelimplash joylari imzolanadi yoki va muhrlanadi. Takliflarning texnik va moliyaviy qismiga oid hujjatlar jildlangan, raqamlangan va vakolatli shaxsning imzosi va ishtirokchining muhri bilan muhrlangan bo'lishi kerak. Ishtirokchi o'z taklifini xarid komissiyasining ishchi organi ("Biznesni rivojlantirish banki" ATB Ma'muriy xo'jalik departamenti)ga pochta orqali yoki ishtirokchining vakolatli vakili orqali qo'lda taqdim etadi. Taklifni taqdim etish sanasi va vaqti xarid komissiyasining ishchi organi tomonidan takliflarni ro'yxatga olish jurnalida (varaqda) ishtirokchining vakolatli vakili (agar mavjud bo'lsa) imzosi bilan qayd etiladi.
- 6.2 Tashqi konvertda quyidagi hujjatlar bo'lishi kerak:
 - a) ushbu xarid hujjatining 5.2.-bandiga muvofiq hujjatlar;
 - b) taklifning moliyaviy (narx) qismi solingan muhrlangan konvert.
- 6.3 Taklif doirasida taqdim etilgan barcha hujjatlar davlat tilida va zaruriyatga qarab boshqa tillarida rasmiylashtirilishi mumkin. Boshqa tillarda taqdim etilgan takliflar o'zbek yoki rus tillariga tarjima qilinishi lozim. Bu holda tarjima qilingan hujjat haqqoniy deb hisoblanadi. Barcha hujjatlar ishtirokchining vakolatli shaxsi imzosi va muhri bilan taqdim etilishi talab etiladi.
- 6.4 Taklifning amal qilish muddati takliflarni qabul qilinishi tugagan kundan boshlab kamida 20 ish kuni bo'lishi kerak.
- 6.5 Takliflarni qabul qilish muddati va vaqti: takliflar "Biznesni rivojlantirish banki" ATB rasmiy sayti (www.brb.uz) da tanlash e'lon qilingan kundan boshlab 12 (o'n ikki) ish kuni muddatda qabul qilinadi. Tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni qabul qilish muddati tugagandan keyin takliflar qabul qilinmaydi.
- 6.6 Takliflarni qabul qilish muddatini uzaytirish faqat xarid komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.
- 6.7 Buyurtmachi quyidagi hollarda ishtirokchini tanlovda ishtirok etishdan chetlatadi, agar: ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday

shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa; ishtirokchi xarid qilish hujjatining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa; ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa; ishtirokchi taqdim etgan hujjatlardagi ma'lumotlar haqqoniy emasligi aniqlanganda; u to'g'risida Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd mavjud bo'lsa.

- 6.8 Tanlash ishtirokchilari tanlash o'tkazish tartibi bo'yicha qarshi takliflar kiritishga haqli emas.
- 6.9 Agar tanlash g'olibi shartnoma loyihasida offshor zonada yoki ta'qiqlangan hududlarda joylashgan yuridik (pochta) manzili va (yoki) bank hisob raqamini ko'rsatsa, Buyurtmachi tanlash g'olibi bilan shartnoma tuzmaslikka haqli.
- 6.10 Xarid komissiyasi va Buyurtmachi tanlash ishtirokchilarining tanlashda qatnashish bilan bog'liq harajatlari uchun moddiy javobgar emaslar.

7. Tanlash o'tkazilmagan deb topilishi holatlari

- 7.1 Quyidagi hollarda tanlash o'tkazilmagan deb topilishi mumkin:
 - a) agar tanlovda hech kim qatnashmagan bo'lsa (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-259-sonli Farmoning 9-bandi "d" kichik bandida ko'rsatilgan belgilangan hollar bundan mustasno);
 - b) agar takliflarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki kelib tushgan takliflardan birortasi yoki hech qaysisi tanlov hujjati talablariga javob bermasa;
 - c) taqdim etilgan taklif (takliflar) kerakli hujjatlar to'plamini o'z ichiga olmagan bo'lsa. Bunda davlat buyurtmachisi Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi mumkin.
- 7.2 Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda tanlashni bekor qilish huquqiga ega. Bu holda Buyurtmachi tanlash bekor qilinganligi to'g'risida asoslangan sabablarini "Biznesni rivojlantirish banki" ATB rasmiy sayti (www.brb.uz) joylashtiradi yoki tanlov g'olibiga tanlov natijalarini bekor qilinganligi to'g'risida ma'lumot beradi.
- 7.3 Tanlash takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda

amalga oshiriladi:
tanlash taklifining tanlash hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish; ishtirokchining malaka talablarga (tanlash hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa) muvofiqligini baholash;

tanlash taklifining narx qismini baholash. Tanlash ishtirokchilari tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar ro'yxati mazkur Yo'riqnomaga 1-sonli ilovada taqdim qilingan (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7-sonli shakllar).

7.4 Tanlash takliflarini baholash va tanlash g'olibini aniqlash tanlash hujjatlarida belgilangan ketma-ketlik, tartib, mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi (1-sonli Ilova).

7.5 Tanlash hujjatining 1-ilovasida ko'rsatilgan hujjatlar ishtirokchi tomonidan aynan tanlash hujjat ilovasida ko'rsatilgan shaklda va to'liq taqdim etilishi shart, ishtirokchining ushbu mezonlar bo'yicha tanlash hujjati ilovasida ko'rsatilgan shakllarga muvofiq bo'lmagan boshqa shaklarda va/yoki qisman taqdim etgan malaka hujjatlari inobatga olinmaydi.

7.6 Ishtirokchi quyidagi holatlarda tanlashda ishtirok qilishdan chetlashtiriladi:

- Insofsiz ijrochilar yagona reestrda Ishtirokchi to'g'risida yozuv bo'lgan holatda;

- soliqlar va yig'imlar to'lovi bo'yicha muddati kechiktirilgan qarzdorlik bo'lgan holatda;

- unga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari joriy qilingan holatda;

- Ishtirokchi tanlash hujjatlarining malakaviy, texnik va tijorat talablariga javob bermagan holatda;

- Ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisining har qanday harakatlarni amalga oshirishiga, qarorlar qabul qilishiga yoki har qanday tanlash tartib-taomillari qo'llanishiga ta'sir etish maqsadida davlat buyurtmachisi yoki boshqa davlat organining har qanday joriy yoxud sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shaklda mukofot puli berilishini, ishga yollanishini yoki har qanday boshqa qimmatbaho buyum yoki xizmatni bevosita yoki bilvosita taklif qilgan, bergan yoki berishga rozilik bildirgan holatda;

- Ishtirokchi raqobatchilikka qarshi harakatlarni amalga oshirgan yoki qonun hujjatlari talablari buzilgan holda manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lgan holatlarda, shuningdek Ishtirokchilar o'rtasida affillanganlik belgilari aniqlangan holatlarda;

- Ishtirokchi tomonidan korrupsiya xatti-harakatlariga yo'l qo'yilmasligi to'g'risida ariza taqdim qilinmagan holatda;

- Ishtirokchida shartnoma tuzish uchun qonuniy huquq bo'lmagan holatda;

- tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim qilingan hujjatlardagi axborotning noto'g'riligi aniqlangan holatda;
- Ishtirokchilar belgilangan muddatda kerakli hujjatlar paketini taqdim qilmagan yoki o'z muddatida taqdim qilingan hujjatlar paketi tanlash hujjatlari talablariga javob bermagan holatda;
- tegishli ro'yxatga asosan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 12-iyunda 2467-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Davlat Soliq qo'mitasi, Davlat Bojxona qo'mitasi va Markaziy bank qaroriga Ilova, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 12- oktabrda 2467-3-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar) tanlash ishtirokchisi (yoki Ishtirokchi banki yoxud uning ta'sischilari yoki uning rahbarlari) imtiyozli soliq rejimi taqdim qilinadigan va (yoki) moliya operatsiyalarini o'tkazishda axborot oshkor qilinishi va taqdim qilinishi nazarda tutilmaydigan davlatlar yoki hududlarda (offshor zonalarda).

“O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining ma'lumotlar bazalarida ishtirokchining sud qarorlari bo'yicha bajarilmagan majburiyatlari mavjud bo'lsa”. Ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to'g'risidagi qaror va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari haqidagi bayonnomaga (hisobotga) kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.

- 7.7 Tanlash taklifi Qonun va tanlash hujjatlari talablariga javob bergan holatda tegishlicha rasmiylashtirilgan deb e'tirof qilinadi. Xarid komissiyasi mas'ul kotibining Ishtirokchining tanlash taklifini tegishlicha rasmiylashtirilgan yoki tegishlicha rasmiylashtirilmagan deb e'tirof qilish to'g'risida sabablari asoslangan qarori Xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Ishtirokchi tanlash taklifining tegishli talablarga javob bermasligi to'g'risida qaror, bunday qarorning sabablari qayd etilgan holda, bunday qaror qabul qilingan kunda Ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.
- 7.8 Tanlash takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasi tanlash ishtirokchilaridan ularning tanlash takliflari yuzasidan izohlarni talab qilib olishi mumkin. Izohlash jarayonida taklif mazmun-mohiyati, shuningdek narx bo'yicha biron-bir o'zgartishlarga yo'l qo'yilmaydi.
- 7.9 Tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan har qanday hujjat va ma'lumotlar maxfiy hisblanadi va ushbu tanlashga rasman aloqador bo'lmagan shaxslarga oshkor etilmaydi.
- 7.10 Xarid komissiyasi taqdim etilgan takliflar va o'tkazilayotgan tanlash doirasida tuzilgan boshqa hujjatlarning maxfiylikini kafolatlaydi.

- 7.11 Tanlash takliflarini ko‘rib chiqish va baholash bilan bog‘liq barcha ma‘lumotlar maxfiy hisoblanadi va oshkor etilishi mumkin emas.

8. Takliflarni baholash tartibi va mezonlari

- 8.1 Takliflar 1-ilovada keltirilgan mezonlarga muvofiq hamda ishtirokchining taklifiga asosan ikki bosqichda baholanadi. Xarid hujjati mezonlari talablarini bajargan eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi g‘olib deb topiladi.
- 8.2 Ishtirokchilarning malaka va texnik baholash natijalariga mos kelmaydigan takliflari xarid komissiyasining qaroriga ko‘ra tanlovdan chetlashtiriladi.
- 8.3 Xarid hujjatida ko‘rsatilgan talablarga mos keladigan kamida ikkita taklif mavjud bo‘lganda xarid o‘tkazilgan deb hisoblanadi va g‘olib aniqlanadi.
- 8.4 Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash muddati takliflarni qabul qilish muddati tugagan sanadan boshlab 10 ish kundan oshmaydi.
- 8.5 Xarid komissiyasining qarori bilan g‘olib aniqlanadi. Zarur hollarda tanlovning zaxira g‘olibi aniqlanishi mumkin.
- 8.6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli Farmoniga asosan, eng yaxshi takliflarni tanlash savdolarida bitta tadbirkorlik subyekti ishtirok etgan taqdirda, davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomilini hamda tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) oid mezonlarni o‘zgartirmagan holda takroran e‘lon joylashtirganda va takroriy ushbu savdolarida ham yagona ishtirokchi ilgari ishtirok etgan tadbirkorlik subyekti bo‘lsa, u holda eng yaxshi takliflarni tanlash savdolari o‘tkazilgan deb hisoblanadi.
- 8.7 Agar taklifni taqdim etgan ishtirokchi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga javob bermasa yoki ishtirokchining taklifi to‘liq bo‘lmasa yoki xarid hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lmasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi.
- 8.8 Xarid hujjati va taklifda ko‘rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tanlash ishtirokchisi g‘olib deb topiladi.
- 8.9 Xarid komissiyasi yig‘ilishining Tanlash g‘olibi aniqlanganligi to‘g‘risidagi bayonnoma tasdiqlanib g‘olib aniqlangandan keyin ushbu xarid hujjatining shartlariga muvofiq Buyurtmachi g‘olib tashkilot bilan 10 (o‘n) ish kuni muddatda shartnoma tuzadi. G‘olib tomonidan shartnomani o‘z vaqtida imzolamaslik shartnomani tuzishdan bosh tortish sifatida baholanadi.
- 8.10 G‘olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda xarid

komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishni rad etgan bo'lsa, buyurtmachi Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi mumkin.

8.11 Tanlashda ishtirok qilish uchun taklif (malaka hujjatlari) davlat tilida yoki rus tilida, shuningdek zarur hollarda, davlat tiliga yoki rus tiliga tarjima qilingan holda boshqa tillarda tuziladi. Boshqa tillarda taqdim etilgan takliflar o'zbek yoki rus tillariga tarjima qilinishi lozim (ishtirokchilarning texnik taklifidagi texnik atamalardan tashqari). Bu holda tarjima qilingan hujjat haqqoniy deb hisoblanadi. Boshqa tillarda taqdim etilgan hujjatlarlar inobatga olinmaydi va ishtirokchi chetlashtiriladi. Barcha hujjatlar ishtirokchining vakolatli shaxsi imzosi va muhri bilan taqdim etilishi talab etiladi.

8.12 Tanlash taklifi bilan birga Ishtirokchilar xomaki nusxalar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayllar shaklida joylashtirishlari mumkin*.

**Agar davlat xaridi shartlarida Ishtirokchilar tomonidan xarid ob'ekti hisoblangan tovar nusxalari, namunalarini taqdim qilish nazarda tutilgan bo'lsa, Xarid komissiyasi ularning Ishtirokchilar tomonidan taqdim qilinishi alohida tartibini belgilaydi.*

Bunda, Ishtirokchilarning tanlash takliflari elektron tizimdagi shablonlarga asosan tanlash ishtirokchisining vakolatli vakili tomonidan tasdiqlangan va muhrlangan ikkita, tashqi va ichki, konvertida topshirish orqali taqdim qilinadi. Ishtirokchi tomonidan qayd etilgan ma'lumotlar biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga muvofiq bo'lishi kerak.

8.13 Tanlash takliflarini ochish muddati kelgungacha ularning tanlash ishtirokchilari, shu jumladan Xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yilmaydi, ushbu takliflarni taqdim qilgan Ishtirokchi bundan mustasno.

8.14 Tanlash ishtirokchisi:

- faqat bitta tanlash taklifini berishga haqli;
- taqdim qilinadigan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi;
- tanlash takliflarini berish tugaydigan muddatgacha taqdim qilingan tanlash taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartishlar kiritishga haqli;
- xarid hujjatlarida belgilangan shakllarga asosan kafolat xatini (1-shakl), kontragent mulki tuzilishini (2-

shakl), korrupsiya hatti-harakatlariga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risida arizani (3-shakl), mazkur tanlash shartlariga muvofiq qurilish-ta‘mirlash ishlarini bajarish bo‘yicha tajribasi to‘g‘risida ma‘lumotlarni (4-shakl), tanlash ishtirokchisi to‘g‘risida umumiy axborotni (5-shakl), Ishtirokchining Tanlashda ishtirok etish uchun Xarid komissiyasi raisiga arizasi (6-shakl), xodimlar bilan ta‘minlanganlik to‘g‘risida ma‘lumotnoma (7-shakl)ni taqdim qilishi kerak. Aks holda, Ishtirokchining malakaviy hujjatlari mazkur mezon bo‘yicha qabul qilinmaydi;

Ishtirokchilar tomonidan taqdim qilingan malaka hujjatlari tanlash e‘lon qilingan sanadan so‘ng rasmiylashtirilishi shart yoki ularning amal qilish muddatlari tugaman bo‘lishi kerak (soliq organlari yoki boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan axborot).

- 8.15 Joylashtirilgan e‘londa belgilangan muddat va vaqt boshlangan paytdan e‘tiboran tanlash takliflarini qabul qilish to‘xtatiladi.

9. Tanlash takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirish

- 9.1 Zarur bo‘lgan hollarda, Buyurtmachi barcha Ishtirokchilarga joriy qilinadigan tanlash takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirishi yoki Ishtirokchilarga Xarid komissiyasi qaroriga binoan muayyan davrga ularning tanlash takliflari amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risida taklif bilan murojaat qilishi mumkin.

- 9.2 Buyurtmachi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlashda ishtirok qilish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanagacha 1 (bir) ish kunidan kechikmay tanlash hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.

Tovar (ishlar, xizmatlar) nomini o‘zgartirish mumkin emas. Bunda, ushbu tanlashda ishtirok qilish uchun takliflar berish tugaydigan muddat tanlash hujjatlariga o‘zgartishlar kiritilgan sanadan e‘tiboran 10 (o‘n) ish kunidan kam bo‘lmagan muddatga uzaytirilishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, agar e‘londa qayd etilgan axborot o‘zgargan bo‘lsa, tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risida e‘longa o‘zgartishlar kiritiladi.

10. Shartnoma tuzish

- 10.1 Tanlashni o‘tkazish natijalari bo‘yicha shartnoma g‘olib e‘lon qilingan paytdan e‘tiboran 10 (o‘n) ish kunidan kechikmagan muddatda tanlash hujjatlarida va g‘olib tanlash taklifida belgilangan shartlarda tuziladi.
- 10.2 Tanlash g‘olibi shartnoma tuzishni rad qilgan holatda, shartnoma tuzish va ushbu shartnoma bo‘yicha

majburiyatlar ijro huquqi zaxira g'olibga o'tadi. Bunda, zaxira g'olib bilan shartnoma g'olib tomonidan taklif qilingan narx bo'yicha tuziladi (zaxira g'olib tomonidan taklif qilingan narx g'olib tomonidan taklif qilingan narxdan pastroq bo'lgan holatlar bundan mustasno) yoki u shartnoma tuzishni rad qilishi mumkin. Agar zaxira g'olib aniqlanmagan yoki zaxira g'olib shartnoma tuzishni rad qilgan bo'lsa, Buyurtmachi yangi tanlash o'tkazadi.

Takliflarni baholash usuli - Ball usuli

Ball usuli - tanlash taklifining texnik - malakaviy hamda narx parametrlarini hisobga olgan holda eng ko'p ball to'plagan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

**Ishtirokchi takliflarining Texnik va narx parametrlarining ahamiyati
Bo'yicha nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar**

№	Mezon	Baho
1	Texnik va malaka qismining miqdoriy ko'rsatkichi	70%
2	Narx qismining miqdoriy ko'rsatkichi	30%

Texnik-malakaviy qismini baholash tartibi va mezonlari. Tanlashning Texnik-malakaviy qismini baholash Xarid hujjatlarining texnik shartlari asosida Xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Maksimal ball **16** ball. Texnik malaka qismini baholashdan o'tmagan Tanlashdan o'tmagan ishtirokchilarning takliflari yani baholash natijalariga ko'ra **12** balldan kam ball to'plagan ishtirokchilar xarid komissiyasi tomonidan tanlashda ishtirok etishdan chetlashtiriladi.

Maksimal ball: 16 - ball.

Narx qismiga o'tish uchun minimal ball - 12 ball.

TANLASH ISHTIROKCHILARI VA TAKLIFLARNI BAHOLASH MEZONLARI

Xarid komissiyasi tanlashni amalga oshiradi. Agar tanlash ishtirokchisi tomonidan talab qilingan ma'lumotlar taqdim etilmagan bo'lsa, yoki qisman taqdim etilgan bo'lsa xarid komissiyasi uni tanlashda ishtirok etishdan chetlashtiradi.

**BAHOLASH MEZONLARI (Ball usuli)
Malaka tanlovi**

T/r	Mezonlar	Ball	Baholashga bo'lgan talab	Izoh
1.	Davlat ro'yhatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat. (davlat ro'yhatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi).	1	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) - 1 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa - 0 ball, ishtirokchi chetlashtiriladi.
2.	Ishtirokchining kafolat xati (1-shakl bo'yicha).	1	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) - 1 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa - 0 ball, ishtirokchi chetlashtiriladi.
3.	Kontragent egaligi tuzilmasi, bunga benefitsar(ta'sischi) mulkiy egalarni ham hisobga olgan holda barcha mulk egalari kiritiladi (2-shakl, hamda Ustav yoki ta'sis shartnomasi nusxasi)	1	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) - 1 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa - 0 ball, ishtirokchi chetlashtiriladi.
4.	Ishtirokchining korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi arizasi (3-shakl).	1	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) - 1 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa - 0 ball, ishtirokchi chetlashtiriladi.

5.	Ishtirokchining qurilish murakkabligining II-toifasidan kam bo'lmagan qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarganligi bo'yicha ish tajribasi to'g'risidagi ma'lumot (ma'lumot xati 4-shakl va tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari: shartnoma yoki hisob faktura yoki qabul qilish topshirish dalolatnomalari).	1	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) - 1 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa - 0 ball, ishtirokchi chetlashtiriladi.
6.	Tanlash ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumot (5-shakl).	1	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) - 1 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa - 0 ball, ishtirokchi chetlashtiriladi.
7.	So'ngi hisobot yili uchun buxgalteriya hisoboti, Soliq organi tomonidan qabul qilingan QR-kodli ma'lumotnoma va Buxgalteriya balansi-1-shakl va Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot- 2-shakl) yoki so'ngi hisobot yili uchun auditorlik xulosasi (Norezidentlar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar QR-kodli bo'lishi majrubi emas)	1	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) - 1 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa - 0 ball, ishtirokchi chetlashtiriladi.
8.	Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (vakolatli organ tomonidan berilgan ma'lumotnoma). (Norezidentlar tomonidan davlat ro'yxatidan o'tgan mamlakatning qonunchiligida bunday hisobotlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, kafolat xati taqdim etiladi)	1	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) - 1 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa - 0 ball, ishtirokchi chetlashtiriladi.
9.	Ishtirokchining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki me'yoriy hujjat yoki veb-saytining mavjudligi to'g'risida ma'lumot. (Hujjat nusxasi yoki veb-sayt havolasi).	1	Afzalroq	Taqdim qilinganda (to'liq) - 1 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa - 0 ball. Ishtirokchi chetlashtirilmaydi.
10.	Ishtirokchining to'lovga qobiliyatsizlik emasligi to'g'risidagi (Davlat xizmatlari markazi tomonidan berilgan ma'lumotnoma nusxasi). (norezidentlar kafolat xatni taqdim etadi.)	1	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) - 1 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa - 0 ball, ishtirokchi chetlashtiriladi.
11.	Ishtirokchining Tanlashda ishtirok etish uchun Xarid komissiyasi raisiga arizasi (6-shakl).	1	Majburiy	Taqdim qilinganda (to'liq) - 1 ball. Agar yo'q yoki muvofiq bo'lmasa - 0 ball, ishtirokchi chetlashtiriladi.

Texnik tanlov

12.	<p>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi 699-sonli qarori bilan tasdiqlangan qurilish tashkilotlari reytingi darajalari toifasi mavjudligi. Bunda baholash mezon quyidagicha:</p> <ul style="list-style-type: none"> - “D” toifasi bo‘yicha reyting bahosi (DDD) uchun - 1 ball; - “C” toifasi bo‘yicha reyting bahosi (C/CC/CCC) uchun - 2 ball; - “B” toifasi bo‘yicha reyting bahosi (B/BB/BBB) uchun - 3 ball; - “A” toifasi bo‘yicha reyting bahosi (A/AA/AAA) uchun - 4 ball; <p>(reyting.mc.uzdan ma’lumot taqdim etiladi).</p> <p>“D” toifasi bo‘yicha “D” va “DD” reyting bahosi uchun ball berilmaydi va ishtirokchi chetlashtiriladi.</p>	4	Majburiy	<p>Taqdim qilinganda (to‘liq) - “D” toifasi bo‘yicha reyting bahosi (DDD) uchun - 1 ball , “C” toifasi bo‘yicha reyting bahosi (C/CC/CCC) uchun - 2 ball, “B” toifasi bo‘yicha reyting bahosi (B/BB/BBB) uchun - 3 ball, “A” toifasi bo‘yicha reyting bahosi (A/AA/AAA) uchun - 4 ball.</p> <p>Agar yo‘q yoki muvofiq bo‘lmasa, “D” va “DD” reyting bahosi uchun - 0 ball, ishtirokchi chetlashtiriladi.</p>
13.	<p>Tanlash ishtirokchisining 7-shaklga muvofiq xodimlar bilan ta’minlanganlik to‘g‘risida ma’lumotnoma (yagona milliy mehnat tizimi my.mehnat.uz saytidan tanlash e’lon qilish sanasidan so‘ng olingan QR kodli ma’lumotnoma yoki ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi shartnoma nusxasi yoki boshqa tasdiqlovchi hujjat nusxasi).</p>	1	Majburiy	<p>Taqdim qilinganda (to‘liq) - 1 ball.</p> <p>Agar yo‘q yoki muvofiq bo‘lmasa - 0 ball, ishtirokchi chetlashtiriladi.</p>

Narx qismini baholash mezon

Ishtirokchilarning taklif narxini baholash, xarid komissiyasi tomonidan texnik va malakaviy baholash o‘tkazilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

№	Mezon	Boshlang‘ich narx	Eslatma
---	-------	-------------------	---------

14.	Taklif etilayotgan narx	<p>256 799 330 262,50 (ikki yuz ellik olti milliard yetti yuz to‘qson to‘qqiz million uch yuz o‘ttiz ming ikki yuz oltmish ikki so‘m 50 tiyin, QQSsiz) so‘mni, 287 615 249 894,0 (ikki yuz sakson yetti milliard olti yuz o‘n besh million ikki yuz qirq to‘qqiz ming sakkiz yuz to‘qson to‘rt QQS bilan birga) so‘m.</p>	<p>Ball usulida, qonunchilikda belgilangan hisob-kitoblarga asosan.</p>
-----	--------------------------------	---	---

***Eslatma: Agar majburiy mezonlar bo‘yicha so‘ralgan ma’lumotlar taqdim etilmasa yoki qisman taqdim etilsa, u hisobga olinmaydi va ishtirokchi tanlovdan chetlashtiriladi.**

1-shakl

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ _____

Sana: _____

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Xarid komissiyasiga

KAFOLAT XAT

Ushbu xat bilan _____ (tashkilot nomi) quyidagilarni:

- qayta tashkil etish, tugatish yoki to'lovga qobiliyatsizlik holatida emasligini;
- Buyurtmachi bilan sud jarayoni holatida emasligini;
- ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni noto'g'ri bajarish holatlari yo'qligini;
- soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar mavjud emasligini;
- shartnomani ijro etish uchun zarur bo'lgan texnik, moliyaviy, moddiy, kadr va mexnat hamda boshqa resurslariga egaligini;
- korrupsion ko'rinishlariga yo'l qo'yilmasligini;
- taqdim etilayotgan ma'lumot va xujjatlarni xaqqoniy va ishonchligini tasdiqlaymiz va kafolat beramiz.

Vakolatli shaxsning

F.I.Sh. _____

M.O'.

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ _____

Sana: _____

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Xarid komissiyasiga

Yakuniy benefitsiarlar to‘g‘risida _____

(haridlar ishtirokchisi) *

MA'LUMOTNOMA

№	F.I.Sh.	Tug‘ilgan sanasi	Shaxsning roli (rahbar / ta‘sischi / yakuniy benefitsiar)	Shaxs rahbar/ ta‘sischi/ yakuniy benefitsiar bo‘lgan davr	Ishtirok etish ulushi (faqat 5 foizdan ortiq ulushga ega ta‘sischilar uchun), foizda
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
7.					
...					

**so‘nggi ikki yil uchun to‘ldiriladi*

Vakolatli shaxsning

F.I.Sh. _____

M.O‘.

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ _____

Sana: _____

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Xarid komissiyasiga

Korrupsion holatlarga yol qo'yilmaslik haqidagi
ARIZA

Ushbu xat orqali bizning _____ tashkilotimiz
(Tashkilot nomi)

a) Quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- 2021 yil 22 aprel “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'RQ-684-qonun talablariga rioya etilishiga;
- amaldagi mansabdor shaxsga, buyurtmachining yoki boshqa davlat xodimi vakiliga turli xil ko'rinishdagi mukofotni to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa bir yo'l orqali taklif etilishiga yo'l qo'yilmaslikni, Buyurtmachi tomonidan qaror qabul qilishiga ta'sir etish maqsadida ishga qabul qilish taklifini yoki qimmatbaho buyum, sovg'a yoki xizmatlarni taklif etish hamda biron bir boshqa nojo'ya xarakatlarni amalga oshirish orqali davlat xaridlari jarayoniga aralashmaslikka;
- raqobatchilarga qarshi xarakatlarni, shu jumladan affillanganlik holatlari aniqlangan holatlarida ham amalga oshirmaslikka;
- tovlamachilik, korrupsiya va hujjatlarni soxtalashtirish holatlariga yo'l qo'yilmaslikka;
- yolg'on yoki soxta hujjatlarni taqdim etilmaslikni, ushbu lotda ishtirok etayotgan ishtirokchilarning affillangan shaxslari to'g'risidagi malumotlarni oshkor etmaslikni;

b) Shuningdek,

- Buyurtmachi bilan manfaatlar to'qnashuvida emasligini, ta'sischilar va/yoki ijrochini aniqlanish bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega bolgan xodimlar orasida yaqin qarindoshlar yo'qligini;
- Tanlash natijalariga yoki narxlarning o'zgarishiga ta'sir etish maqsadida boshqa ishtirokchilar bilan o'zora til biriktirilmaganligini tasdiqlaymiz.

Vakolatli shaxsning

F.I.Sh. _____

M.O.

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ _____

Sana: _____

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Xarid komissiyasigaIshtirokchining qurilish murakkabligining II-toifasi bo'yicha qurilish-ta'mirlash ishlarini
bajarganligi bo'yicha ish tajribasi to'g'risidagi ma'lumoti

№	Tovar (ish, xizmat) nomi	Buyurtmachi to'g'risida ma'lumot	Yetkazib berish sanasi	Izoh

(vakolatli shaxsning imzosi)_____
(vakolatli shaxsning F.I.Sh. va mansabi)**Vakolatli shaxsning****F.I.Sh.** _____

M.O'.

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ _____

Sana: _____

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Xarid komissiyasiga

Tanlash ishtirokchisi to‘g‘risida umumiy ma’lumot.

1.	Yuridik manzil	
2.	Amaldagi manzil	
3.	Bog‘lanish uchun telefon, faks, e-mail	
4.	Ushbu tanlov natijalari bo‘yicha to‘lov uchun bank rekvizitlari	

Vakolatli shaxsning**F.I.Sh.** _____

M.O‘.

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ _____
Sana: _____

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Xarid komissiyasi raisiga

Tanlashda ishtirok etish uchun ariza

“Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko‘chasida joylashgan, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma‘muriy binosini mukammal ta‘mirlash” ishlari” bo‘yicha eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlarini, (_____-sonli LOT), o‘rganib chiqib, ushbu ariza bilan tasdiqlagan holda, biz, quyida imzo chekuvchilar (tanlash Ishtirokchisining nomi), eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlariga muvofiq tanlashda ishtirok etish niyatimizni bildiramiz.

Shu munosabat bilan quyidagi hujjatlarni taqdim etmoqdamiz:

1. Malaka hujjatlari to‘plami;
2. Taklifning texnik qismi;
3. Taklifning narx qismi;

Biz malaka hujjatlari, shuningdek taklif hujjatida taqdim etilgan boshqa axborot va hujjatlar to‘liq, ishonchliligini tasdiqlaymiz.

Bog‘lanish uchun telefon/faks: _____

Elektron pochta manzili: _____

Vakolatli shaxsning F.I.Sh va imzosi

M.O‘.

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ _____
Sana: _____

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Xarid komissiyasiga

Xodimlar bilan ta'minlanganlik to'g'risida ma'lumotnoma

№	Egallab turgan lavozimi	F.I.Sh	Qurilish sohasidagi ish tajribasi
1	Rahbar		
2	Loyiha rahbari-menejeri		
3	Muxandis quruvchi		
4	Ishlab chiqarish-texnika bo'limi muhandisi (injener IITO)		
5	Muxandis elektrik		
6	Loyiha va qurilish texnik ichki nazoratchisi		
7	Master		
8	Muhandis-mexanik		

M.O'.

III- BO'LIM. NARX QISMI

1.	Boshlang'ich narx	256 799 330 262,50 (ikki yuz ellik olti milliard yetti yuz to'qson to'qqiz million uch yuz o'ttiz ming ikki yuz oltmish ikki so'm 50 tiyin, QQSsiz) so'mni, 287 615 249 894,0 (ikki yuz sakson yetti milliard olti yuz o'n besh million ikki yuz qirq to'qqiz ming sakkiz yuz to'qson to'rt QQS bilan birga) so'm.
2.	Moliyalashtirish manbai	Buyurtmachining o'z mablag'lari
3.	To'lov shartlari	
3.1	Mahalliy ishtirokchilar uchun	Bo'nak (Avans) - 10%; joriy moliyalashtirish - bajarilgan ishlar hajmining 95% miqdorida, berilgan bo'nakni mutanosib ravishda ushlab qolishni hisobga olgan holda; qurilish ishlari yakunlanib, kafolat muddati tugaganidan keyin - 5%. Pudrat tashkilotining mebel, uskunalar, qurilish materiallari va inventarlar sotib olish bo'yicha asoslantirilgan hisob-kitoblariga ko'ra, Buyurtmachi shartnoma summasi doirasida bo'nak shaklida moliyalashtirish masalasini ko'rib chiqishi mumkin, bunda avans summasi keyinchalik bajarilgan ishlar dalolatnomalaridan (aktlardan) ushlab qolinadi.
3.2	Xorijiy ishtirokchilar uchun	Bo'nak (Avans) - 10%; joriy moliyalashtirish - bajarilgan ishlar hajmining 95% miqdorida, berilgan bo'nakni mutanosib ravishda ushlab qolishni hisobga olgan holda; qurilish ishlari yakunlanib, kafolat muddati tugaganidan keyin - 5%. Pudrat tashkilotining mebel, uskunalar, qurilish materiallari va inventarlar sotib olish bo'yicha asoslantirilgan hisob-kitoblariga ko'ra, Buyurtmachi shartnoma summasi doirasida bo'nak shaklida moliyalashtirish masalasini ko'rib chiqishi mumkin, bunda avans summasi keyinchalik bajarilgan ishlar dalolatnomalaridan (aktlardan) ushlab qolinadi.
4.	To'lov valyutasi	

4.1	Mahalliy ishtirokchilar uchun	O‘zbekiston Respublikasi milliy valyuta so‘m
4.2	Xorijiy ishtirokchilar uchun	Tanlash taklifi taqdim etilgan xorijiy valyutada
5	Ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish shartlari va joyi	Manzil: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko‘chasi 2a-uy.
5.1	Mahalliy ishtirokchilar uchun	Mahalliy pudratchilar uchun: “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma’muriy binosi quyidagi manzil bo‘yicha joylashgan: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, “Chorsu” MFY, Beruniy ko‘chasi, 2a-uy.
5.2	Xorijiy ishtirokchilar uchun	Xorijiy pudratchilar uchun: “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma’muriy binosi quyidagi manzil bo‘yicha joylashgan: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, “Chorsu” MFY, Beruniy ko‘chasi, 2a-uy.
6.	Ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish muddatlari	Pudrat tashkilotining hisob raqamiga avans mablag‘lari kelib tushgan kundan boshlab 5 oy (yoki 150 kalendar kun).
7.	Tanlash taklifining amal qilish muddati	Takliflarni qabul qilish tugagan paytdan e’tiboran eng kamida 20 (yigirma) kun.

kelishuvchilar: N.Abbosov, B.Rakhmatov, A.Nazarov, F.Turgunbayev, Sh.Raximov, K.Raxmatov, F.Mustafoev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=pR12eW33&id=0d709aad-fbd3-43d7-86b7-a55c6120f44f>